

ONA TILIMIZNI KELAJAK AVLOD UCHUN HAM ASRAYLIK

O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar.

Abdulla Qodiriy

Rivoyat qilishlaricha, bir filchani tug'ilganidanoq qoziqdagi uzun zanjirga bog'lab qo'yibdilar. Filcha yigirma yil shu qoziq atrofida aylanib hayot kechiribdi. Uni ozod etishibdi. Fil garchi zanjirband bo'lmasa-da, yana yigirma yil o'sha qoziq atrofida aylangan ekan... Mustabidlik zanjirlarini uzganligimizga qariyb o'ttiz yil to'lyapti. Bugun biz qalban, ma'nan, ruhan, siyratu suratan o'zbek degan nomga munosib bo'lib yashashga to'la haqlimiz.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra: Dunyoda taxminan 5621ta til va sheva mavjud bo'lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o'rganilgan, xolos. Har uch tildan bittasining yozuvi bo'lmay, ularning aksariyati faqat og'zaki nutq shakliga egadir.

Dunyo tillaridan faqat 40tasigina og'zaki va yozma jihatdan mukammal shakllangan, deb hisoblanadi. Faxrlansak arziydiki, o'sha 40ta tilning orasida o'zbek tili ham bor.

Dunyoda eng boy tillar qaysi tillar deb o'ylaysiz? Dunyoda so'z boyligi jihatdan eng badavlat tillar arab va ingliz tillari deb tan olingan bo'lib, inglizlarning hisobida ikki yarim milliondan oshiq so'z bo'lsa, arab tilida esa uch yarim milliondan ortiq lug'at boyligi borligi manbalarda qayd etiladi.

Dunyoda eng kambag'al tillar ham bormi? Dunyoda eng kambag'al til sifatida e'tirof etiladigan Afrika Gvineya (poytaxti–Bisau shahri)da mahalliy **taki** tili mavjud. Unda bor -yo'g'i 340 ta so'z bor, deydi statistika ma'lumotlari.

Shuningdek, Latviyada livon tili bo'lib, unda jami 200ga yaqin kishi muloqot qilishi ham aniqlangan.

Dunyoda eng ko'p tarqalgan til qaysi? Dunyoda eng ko'p tarqalgan til–ispan tili. Ispan tilining asrlar davomida ommalashib ketishiga, avvalo, mashhur sayyohlar, dengiz qaroqchilari hamda ispanlarning mustamlakachilik bilan bog'liq siyosatlariga sabab bo'lgan bo'lishiga qaramay, hozirda u dunyoda eng ko'p tarqalgan til maqomiga egadir. Ha, AQShning 50ta shtatidan 23tasida davlat tili ispan tili (21tasida ingliz tili amaldagi til va qolgan shtatlarda esa fransuz tili) hukmronlik mavqeini saqlab turibdi.

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, o'zbek tilining so'z va iboralari (sheva va adabiy til, kasb-hunar so'zlari va atamalar, eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlar) zamonu makon nuqtai nazaridan cheklanmay yig'ilsa, dunyoda eng ko'p so'zli lug'atlardan ham kattaroq lug'at tuzishimiz mumkin ekan. O'zbek tilining boshqa til qoliplariga tushmaydigan, o'ziga xos rivojlanish yo'llari mavjudki, bu uning har kuni (ba'zan har soatu daqiqada) boyib borishini ta'minlaydi.

Masalan, shu kecha-kunduzda, bozorda yoki do'konda biror yangi (aytaylik, chetdan keltirilgan) mahsulot rastaga yoki peshtaxtaga chiqsa (tabiiyki, o'sha mahsulotning nomi ham tilimizga kirib keladi, o'zlashadi), oradan hech qancha vaqt o'tmay xalq o'sha yangi mahsulotning nomi bilan bog'liq yangi so'zlarni tilda yasab ishlataveradi: *kompyuter* (o'zlashgan so'z)– *kompyuterchi*, *kompyuterfurus*,

kompyutershunos, kompyuterli (sinf), bekompyuter (o'quvchi), kompyuterlashtirmoq (yasalgan so'zlar); *disk* (o'zlashgan so'z)— *diskchi, diskfurushtirish, diskli (noutbuk), disksiz (yozmoq), bedisk (ishlamoq)* (yasalayotgan so'zlar); *sauntrik* (o'zlashgan so'z), *sauntrikchi, sauntrikli (kinofilm)* (yasalayotgan so'zlar); *lavash* (o'zlashgan so'z)—*lavashchi, lavashfurushtirish, lavashpaz, lavashli (dasturxon), lavashsiz (tushlik), lavashxo'r* (yasalayotgan so'zlar) va h.

Aslida kamolot murakkablikda emas, soddalikdadir,—deb yozadi taniqli tilshunos olim Alibek Rustamov “So'z xususida so'z” (Toshkent, 2009.) risolalarida. Zero, inson zoti borki, har sohada, har jabhada, har o'rinda go'zallikka intiladi. Inson qachonki go'zallikka intilmas ekan, uning tabiati hayvonlashadi. O'zbek tilida tiriklikka xos jamiki go'zalliklarni badiiy ifodalash imkoniyati nihoyatda keng va rang-barang. Shu bois biz o'zbeklar nutqimizda so'zlar tizmasidan shunchaki foydalanmaymiz.

E'tibor bering-a?!

1. «Sochingdan ushlab turibman, hayot-mamoting mening qo'limda!» (Ayniqsa, bu gap erkak qavmi tomonidan ayolga nisbatan aytilganda, o'ta ayanchli. Sababki, inson uchun, ayniqsa, o'zbek ayoli uchun or-nomus masalasi hayot-mamot masalasidir.) Aynan shu gapni Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'ipon bunday ifodalaydi:

*Bir tutam sochlaring mening qo'limda,
G'ijimlab o'paymu yo tarab yechay?
Sir deb saqlaganing mening qo'ynimda,
Sir deb saqlayinmu yo yelga sochay?
Sochilgan sochingday sochilsa siring,
Anor yuzlaringni kimga tutasan...*

2. «Orzularing amalga oshmasa, bu dunyoda o'lganing yaxshi!» Qo'pol jumla. Shunday emasmi?! Aynan shu gapni shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bunday ifodalaydi:

*Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Shul ikkisi muyassar o'lmasa olamda
Boshin olib bir sorig'a ketsa kishi.*

3. «Bu yoqqa kel! Ketma! Ko'z oldimda bo'l!» Ba'zan ko'ngil istaklarimiz shu asnoda tilimizga ko'chadi. Buni «avliyolarning avliyosi, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni» hazrat mir Alisher Navoiy shunday ifodalaydi:

*Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zim qarosida mardum kibi vatan qilg'il...*

4. «Xalqiga xizmat qilmagan odam odam emas, hayvondir!»

Buni hazrat mir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytsak:

*Odami ersang demagil odamiy,
Onikim yo'q xalq g'amidan g'ami.*

Ziyolilikning ibtido belgisi to'g'ri so'zlash va to'g'ri yoza olishda. (Afsuski, buni ziyoli qatlamga mansub barcha kishilarda ham kuzatmaymiz. Demak, shu o'rinda ham ziyolilar ikki toifaga ajraladi: ziyolilar va oliy ma'lumotga egaligi

haqida diplomi borlar. Bu alohida masala.) Ziyolilikning yana bir belgisi soʻzni toʻgʻri tushunish va toʻgʻri ishlatishdir. Xoʻsh, biz hamma vaqt ham bunga rioya etamizmi yoki buni uddalay olyapmizmi?!

Oʻzbek efirlarida «ziyolilarimiz» bemalol shevada soʻzlamoqda. Qoʻshiqlarini-ku, saviyasi, ovozi borlar emas, ogʻzi borlar kuylamoqda. («**45** (?) kunlik bu dunyo arzimas fido boʻlishga»; «Seni koʻrgim keladi, Koshki orzularim boʻlsaydi **roʻyo** (?)»), «Oʻzga **oʻy**da (?) baxtli boʻl, lek unutm meni»...) eng dahshat tomoni shundaki, buni farzandlarimiz tinglayapti, oʻrganyapti, taqlid qilyapti.

Qani bu oʻrinda tilga eʼtibor, soʻzga ehtirom?! Afsus...

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarida ona tili taʼlimi aynan oʻquvchiga nutqida «soʻzni toʻgʻri tushunish va toʻgʻri ishlatishni uddalash» uchun ham oʻqitiladi. Shu boisdan ham ona tili oʻquv predmeti oʻqitish oʻzbek tilida olib boriladigan taʼlim muassasalari oʻquv rejasida asosiy fan bloklarining boshidan oʻrin oladi.

Tilning inson zotiga Yaratmish tomonidan tortiq etilgan bebaho neʼmatligini, uni asrab avaylash millatning yashovchanligini taʼminlovchi asos ekanligini taʼkidlovchi bu mantiq asrlar davomida isbot talab qilmaydigan oltin qoidaga aylanganligi bejizga emas.

“Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinganligiga 30 yil toʻldi. Mutaxassislarimiz oʻtgan yillar davomida tilimizning maqomini orttirish uchun kam harakat qildik, deyishyapti; bu boradagi kamchiliklarni sanab oʻtishyapti; oʻzbek tilining maqomini oshirish uchun qilinishi lozim boʻlgan ishlarni taklif qilishyapti. Bu yaxshi. Ammo statistik tahlil shuni koʻrsatadi: oʻzbek tili shu davr ichida maqomini tikladi, Qonun oʻz vazifasini bajardi, Qonunni mukammallashtirish vaqti keldi. Qonunni qayta ishlash jarayonida davlat tilini qoʻllashga qatʼiy talab qoʻyish, uni boshqa davlatlarning davlat tili haqidagi qonuni bilan solishtirish, ijobiy tomonlaridan namuna olish vaqti keldi. Bugun oʻzbek tilining davlat tili maqomini yanada kuchaytirish haqida bosh qotirishimiz, bu yoʻlda sobitqadamlik bilan amaliy ishlar qilishimiz lozim.

Zero, ona tilimizni kelajak avlod uchun ham asrashga masʼul ekanligimizni unutmaylik, aziz zamondosh!

*Yoʻldosheva Dilorom Neʼmatovna,
BuxDU filologiya fakulteti oʻzbek
tilshunosligi kafedrasi dotsenti, p.f.nomzodi*